


— «Tong yulduzi» gazetasiga barcha sinfdoshlarimdan avvalroq obuna bo'lishga qaror qildim, — deydi Sergeli tumanidagi 300-maktabning 8-«D» sinf o'quvchisi Gulnoza JUMAYEVA



2007-yil
19 – 25-
noyabr
N:47
(66640)



Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

18-noyabr — O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun

BAYROG'IMGA O'XSHAR EHTIMOL!

Qirga chiqqan yashil maysalar,
Boshi uzra kulib chiqdi oy.
Yulduzlarni bag'riga olib,
Sayr etardi osmon, hoyna-hoy.

Chopib bordim qirlar bag'riga,
Tinch qo'ymadi bir lahza xayol.
Bu holatni qog'ozga chizsam,
Bayrog'imga o'xshar ehtimol!

Axtamqul KARIM



DUSHANBADAN

PREZIDENT SOVG'ASI

Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik litseyining 4-sinf o'quvchisi Tohirjon Asqarov Italiyada o'tgan yosh pianochilarning o'ttizinchi xalqaro «Le Muse» ko'rik-tanlovida g'olib chiqdi.

Yosh iste'dod sohibiga davlatimiz rahbarining sovg'alari — pianino va zamonaviy kompyuter topshirildi.

Shoirlarga ehtirom

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida atoqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning 100 yilligiga bag'ishlangan adabiy kecha bo'lib o'tdi. Kechada bolalar adiblari, shoirlarning shogirdlari hamda ko'plab adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdilar.

BIRINCHI SAYOHATIM



— Gazeta jamoasi bilan Samarqandga qilgan safarim mening birinchi sayohatim bo'ldi, — deydi poytaxtdagi 249-maktabning 5-sinf o'quvchisi Aziza Jalilova. — Zerikib qolamanmi, deb cho'chigandim. Aksincha, dugonalarimga safar taassurotlarimni so'zlab, ado qilolmayapman.

«KITOB BAYRAMI» SAROYDA

Respublika o'quvchilar saroyida umumta'lim maktab darsliklari, o'quv qo'llanmalar va badiiy adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Ko'rgazmaga nashriyot-matbaa ijodiy uylari, nashriyotlar, xususi nashriyotlar tomonidan nashr etilgan adabiyotlar qo'yildi. Unda noshirlar qatori maktab o'qituvchilari va o'quvchilar ishtirok etdi. Ular tomonidan aytilgan taklif va mulohazalar noshirlarni befarq qoldirmadi.

Ayniqsa, G'afur G'ulom nomidagi NMIU tomonidan o'quvchilarga berilgan kitoblar, shoir va yozuvchilar bilan bo'lgan uchrashuv, san'atkorlarning chiqishlari kitobxonlarga

Obuna bahosi Toshkent shahri uchun bir yilga atigi 4116 so'm.
Nashr indeksi — 198.

DUSHANBAGACHA


Yoshim yetdi sakkizga

DOIMIY HAMROHIMSAN

Sevimli «Tong yulduzi»m! Sening har bir soningni intiqlik bilan kutaman. Chunki senda chop etiladigan har bir maqola, rivoyat va ertaklardan o'rnak olaman. Sen bilan keyingi yilda birga bo'lish uchun 2008-yil uchun ham obuna bo'ldim. Men

vaqtlarimda rasmlar chizishni juda yoqtiraman. Agar ma'qul bo'lsa, chizgan rasmimni gazeta sahifalarida chop etsang...


Sabohat SA'DULLAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy
tumanidagi 38-maktab o'quvchisi



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 84-bog'cha-maktabning 3-«B» sinf o'quvchilari Otabek Komilov va Mohinur Abdullayeva sinfda eng a'lochi o'quvchilardan.

Otabekning matematika, rus tili, ingliz tili fanlariga ishtiyoqi baland.

Shuningdek, u yuqoridagi fanlardan



Otabek



Mohinur

mustaqil test savollari tuzib, sinfdoshlarining olgan bilimlarini ham «tekshirib» turar ekan.

Mohinur ham Otabekdan qolishmaydi. O'qish, ona tili, matematika fanlarini qiziqish bilan o'rganadi. U o'qituvchisi Fotima opaga eng yaqin yordamchi hamdir.

1. Quyidagi misolda tushirib goldirilgan sonlarni qo'yib chiqing:

18+...=26 24-...=20
23+...=31 15-...=5
32+...=42 14-...=7
12+...=24 20-...=10

2. «Olmos Botir» ertagining qahramonlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) yalmog'iz kampir, Olmos Botir, chol;
b) dev, chol, kampir, uchar ot;
c) Olmos Botir, Semurg', yosuman kampir;
d) boy, chol, dev, jodugar.

3. «Ikki do'st» ertak-hikoyasi nima haqida?

- a) ahillik;
b) do'stlik;
c) kambag'allik;
d) boylik.

4. Quyidagi hikmatli so'zni davom ettiring: «Nimani xor aylasang, shunga ... bo'lasan».

- a) kerak;
b) zor;
c) zarur;
d) shart.

BILIMINGIZNI
SINAB KO'RING!




Maftunabonu Ziyovutdinova Hamza tumanidagi 216-maktabning 3-maxsus sinfida tahsil oladi. Bu sinfda ingliz tili, tarix, rus tili fanlari chuqur o'rgatiladi. Maftuna sinfida sinf sardori. U darslardan keyin o'zlashtirishda ortda qolayotgan sinfdoshlariga ham yordam beradi.



Bu tengdoshlaringiz bo'sh vaqtlarida qo'llariga qalam olib, turli mavzuda rasmlar chizishni yoqtirishar ekan.

Sizning maktabingizda yoxud sinfingizda ham o'z iqtidori bilan boshqalardan ajralib turadigan sinfdoshlaringiz bormi? Ular haqida bizga yozib yuboring. Maktublaringizni kutamiz!



Ilhom ZOIR



(Ertak-qissa)

QUVNOQ
QUYONCHA

– Uni albatta topish kerak! – dedi Maymun.

– Uni albatta topamiz! Hoziroq havaskor izquvar Qunduzga aytamiz! U Quyonchani topib beradi, degan umiddamiz! – dedi Qizilishton.

O'rmon oqsoqoli Ayiq polvon ham bunga qo'shildi:

– Butun umidimiz Qunduzdan!..

QUYONCHA, SEZGIR VA O'RMONCHI BOBO

Quyunchadan xabar oladigan bo'lsak, u uchun tun osuda o'tdi. Hozir o'rmonda tong otgan, qushlarning chug'ur-chug'uri barglarning shitir-shitiriga qo'shilib, dillarga ajib bir iliqlik olib kirmoqda. Quyoncha hali uyquda. Har kuni uni onasi uyg'otardi. Bugun uyg'otadigan onasi yo'q, bemaol uxlayapti.

Qulog'idan kimdir qattiq tortgani uchun Quyoncha ko'zini ochdi. Qarasa, havoda muallaq osilib turibdi.

– Topdim! – deya qichqirdi u.

– Sen emas, men topdim, – dedi jigarrang jundan po'stin kiyib olgan It Quyonchani yerga qo'yarkan. – Sen nimani topding?

– Qofiyani topdim, – dedi Quyoncha Itga qarab. – Kechasi she'r to'qiyman, deb uxlab qolibman.

– Qanaqa she'r ekan?

– Aytib bersam, eshitasanmi?

– She'rni eshitish kerak bo'lsa, eshitamiz-da. Qani!

Quyoncha she'rni aytib berdi:

*Osmondagi to'lin oy,
Eslatadi tarvuzni.*

*Oydek tarvuzning suvi
To'ldiradi hovuzni.*

– Shoir ekansa-ku, – dedi It uni olqishlab. – Xo'sh, shu she'rga qanaqa qofiya topding endi?

– «Tarvuz»ni «hovuz»ga qofiya qildim.

– To'g'ri, hovuzda ham, tarvuzda ham suv ko'p. Yana qanaqa she'rlar to'qigansan?

– Bitta ikkiligim bilan bitta to'rtligim maktab devoriy gazetasida chiqqan.

– Zo'r-ku! Ikkiligingni bitta eshitaylik.

Quyoncha ikkiligini aytib berdi:

*Kim nima desa, desin,
Och qolsa, sabzi yesin!*

– To'rtliging mabodo go'sht haqida emasmi?

– Karam haqida.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

– Unda aytmay qo'yaqol. Nechanchi sinfda o'qiyasan?

– Bir oydan keyin birinchi sinfni bitiraman.

– Men ham maktabga borishni juda-xuda xohlardim. Tirikchilik bilan bo'lib, borolmay qoldim. Menga ham she'r to'qishni o'rgatasanmi? Mening ismim Sezgir, seniki-chi?

– Mening ismim Shalpanquloq. Senga she'r to'qishni o'rgatardim-u, avval uyimizni topib olishim kerak.

Sezgir ajablandi.

– Voy, sen hali yo'qolib qolganmisan?

Quyoncha uni rad etdi:

– Nega yo'qolarkanman? Men yoningda turibman-ku!

– Qiziq ekansa-ku! Nega unda uyimizni topishim kerak, deysan?


– Chunki uyimizni yo'qotib qo'ydim-da.

– Yo'q, sen teskarisini aytapsan, – dedi Sezgir Quyonchani gapini to'g'rilab. – Uylaring joyida turibdi, sen yo'qolib qolgansan.

(Davomi bor.)

AMARQANDGA SAYOHAT

3



Prezidentimiz Islom bobongizning tashabbusi va rahbarligida yurtimizda juda ko'p inshootlar barpo etilib, ko'hna yodgorliklar asl holatiga qaytarildi. Hazrati Imom, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Imom Buxoriy ziyoratgohi, Shohi Zinda yodgorlik majmuasi, Bibixonim masjidi va maqbarasi...eh-he, sanayversangiz, sanog'iga

yetmaysiz.

Sayohatimiz Imom Buxoriy ziyoratgohidan boshlandi.

Ularga Imom al-Buxoriy hayoti, u kishi yozgan kitoblar, hadislar, shuningdek, ziyoratgohning bunyod etilishi bilan bog'liq voqealarni gapirib berishdi.

Sizlar Imom al-Buxoriy bobongizning yirik hadisshunos olim bo'lganligini yaxshi bilasiz.

Qisqacha ma'lumot:

Imom al-Buxoriy 810-yili 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topdi. U 600 mingga yaqin hadisni yod bilgan. Ularning eng ishonchlarini saralab, «Al-jome' as-Sahih» kitobiga kiritgan. Kitob 4 jildidan iborat bo'lib, islom olamida yuksak qadrga ega.

Imom Buxoriy 870-yilning 1-sentabrida vafot etgan.

U kishining hayoti bilan bog'liq boshqa voqealarni o'zingiz o'qib olarsiz. Biz esa Sizlarni jurnalist hamkasblarimizning taassurotlari bilan tanishtiramiz.

To'liq HAYIT,

Bosh muharrir:

– Yurtimizning bir go'shasi obod bo'lganini ko'rsam, o'z-o'zimdand quvonaman. Yurtimiz chindan ham kundan kunga obod bo'lib bormoqda. Istiqloq yillarida Samarqand shahrining qayta chiroy ochgani buning yaqqol isbotidir. Jamoamiz bugungi sayohatdan juda minnatdor bo'lib qaytdi, deb o'ylayman.

Yodgorlik majmuasi xodimi Hamroqul aka jamoamizga «Shohi Zinda» videofilmini, biz esa o'z navbatida ularga «Shohi Zinda» kitobini sovg'a qildik.



Feruza JALILOVA,

Bosh muharrir o'rinbosari:

– Samarqand shahrining bugungi ko'rinishi juda yoqdi. Sayohat davomida yonimda hamrohlik qilgan Aziza bilan Saodatning ko'hna obidalarni hayrat bilan kuzatganlarini ko'rib, yana-da quvondim. Ularning savollari biram ko'p bo'ldiki, hammasiga javob berishga to'g'ri keldi.



Nargiza ABDULLAYEVA va Zuhra MUHSIMOVA:

– Sayohat davomida «Sog'lom avlod» gazetasi Bosh muharriri Dilfuza Shomalikova bizga hamrohlik qildilar. Hamrohing yaxshi bo'lsa, sayohat ko'ngilli o'tar ekan.

Feruza ODILOVA,

bo'lim muharriri:

– Sayohatdan qaytishda Mirzacho'l qovunidan tatib ko'rdik. Juda shirin ekan. Sayohatimiz ham shunday shirin o'tdi. Tinch va osoyishta yashab, ko'ngilli sayohatlar uyushtirishga nima yetsin?!



Aziz bolalar, esingizda bo'lsa, 2004-yilning 16-iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Shohi Zinda yodgorlik majmuasida qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarori e'lon qilindi va ushbu qarorning sharofati bilan majmua nihoyatda obod holatga keltirildi.

Aziz bolalar!

Samarqandning ta'rifi ko'p eshitgansiz. 2750 yoshli ko'hna, dovrug'li shaharni kim ham qayta-qayta tomosha qilib, zavq olishni istamaydi, deysiz?! Gazetamiz jamoasi, opa-akalaringiz ham ko'pdan beri shuni orzu qilib yurishgan edi. Nihoyat, «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi rahbarlarining himmatlari bilan ularning bu orzusi amalga oshdi. Shuningdek, «Sog'lom avlod», «G'uncha», «Gulxan», «Kitob dunyosi» va «O'zbekiston» NMIU xodimlari ham ularga hamrohlik qilishdi.



Manzura UBAYDULLAYEVA:

– «Tong yulduzi»ga ishga o'tib, adashmagan ekanman. Sayohatdan so'ng jamoaga bo'lgan mehrim yana-da ortdi.

Dilorom HOTAMOVA:

– Samarqandga bundan 27 yil avval borgan edim. Shahar juda o'zgaribdi. Shunday sayohatni uyushtirgan «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi rahbarlariga tashakkurimizni izhor etaman.



Botir RAMAZONOV,

jamoatchi muxbir:

– Shahar shunchalik ozoda ekanki, muzqaymoq qog'ozini qayerga tashlashni bilolmay, biroz garang bo'ldik.

Jamshid NABIYEV,

jamoatchi muxbir:

– Men Samarqandda bir necha bor bo'lganman, lekin jamoa bilan sayohat qilishning gashti bo'lakcha ekan. Shahar ko'zimga yana-da go'zal, jozibali ko'rindi.



OZODA va GULYUZ:

– Sayohatga bormaganimizdan afsusdamiz.

Jamoamiz ana shu majmuani ham borib ko'rdi. Uni eng mohir ustalarimiz juda tez fursatda qayta ta'mirlab, obod etdilar. Bu yerda biz ingliz, nemis, fransuz sayyohlarini uchratdik. Malayziyadan kelgan mehmonlar bilan suhbatlashdik. Ular Shohi Zinda yodgorlik majmuasini tomosha qilib, hayratga tushganlarini yashirmadilar.

BILIMDONLAR

Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 59-maktabga borganimizda, bizni maktabning ma'naviyat va ma'rifat bo'limi rahbari Melixol opa Sharipova iliq kutib oldi.

– Ellik yildan beri yoshlarga tarbiya berib kelayapman, bolalardan sira ajralgim kelmaydi. Yillar davomida olgan bilim va tajribamni yoshlarning diliga jo qilaversam deymen.

Ha, opaning so'zlarini eshitib, hazrat Alisher Navoiyning «Hunarni asrabon netgumdir oxir», degan satrlarini esladik.

Melixol opa o'zlarining bir guruh shogirdlarini bizga tanishtirdi. 7-sinf o'quvchisi Javohir Komilov O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining «Ulug' saltanat» romani haqida to'liqlanib gapirdi.

Zarifjon Muhammadjonov ham 7-sinf o'quvchisi. U maktabda Zahiriddin Muhammad Bobur rolini ijro etgan iqtidorli bola ekan.

Sanjar Nurmetov, Temur O'tkirov, Ulug'bek Xoliqov kabi a'lochi bolalar bizlarga o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi.

Biz bilimdon bolalarimizning dunyoqarashlariga lol qoldik. Ayni kunda maktabda xitoy hamda koreys tillarida ham saboq berilar ekan.

– O'nta o'quvchimiz Pekinda ta'lim olayapti, – deydi faxr ila Melixol opa. – Izlanganga omad yor, deganlari shu bo'lsa kerak. Bilimdon bolalarimizga doimo omad yor bo'lsin, deymiz.



BIZ BITIRUVCHILARMIZ

Chapdan birinchi: boshlang'ich sinf o'qituvchisi – Umida Yusupova, ilmiy mudir – Surayyo Sayidazizova, maktab direktori – Shohida Ikromova, mehnat o'qituvchisi – Oysha Bakiyeva bitiruvchilar davrasida.

NIGOHIDA HAYRAT BOLALAR


Poytaxtimizdagi 37-yordamchi maktabda bo'lganimizda, nigohlarida hayrat va quvonch bo'lgan bolalarning dunyoqarashlari bilan tanishdik.

Maktab direktori Shohida opa Ikromova bilan bo'lgan suhbatimizda shuni guvohi bo'ldikki, bu yerda ta'lim olayotgan bolalarning juda nozik tomonlari – ularning dilini topish ekan.

– Maktabimizda o'qiydigan bolalarda qaysarlik juda kuchli, biz ularni juda ehtiyotkorlik bilan hayotga tayyorlab boramiz. Har 10-12 nafar bolaga bitta o'qituvchini birlashtirib qo'yganmiz. Shu dargohda ish boshlaganimga ham 30 yildan oshdi. Men uchun bu bolalar bilan ishlash zavqli.

Shohida opaning so'zlaridan ko'rinib turibdiki, garchi bu bolalar bilan ishlash qancha og'ir kechmasin, ustoz uchun ilm berish shuncha zavqli kechar ekan. Ayni kunlarda nutqida nuqsoni bor 200 nafar bolalarni tarbiyalashda 50 nafar murabbiy jonbozlik ko'rsatmoqda.

Maktabdan qaytarkanmiz, mamlakatimizda har bir bola taqdiriga cheksiz e'tibor berib kelinayotganiga guvoh bo'ldik.



4 -CHEMPIONLARGA TENGLASHAMIZ

Yurtimizda o'quvchilari sport yulduzlariga aylangan bir BO'SM bor. Bu maskanda ilk boks saboqlarini olgan bokschilarimizni bugun mamlakatimiz aholisi yaxshi taniydi. Andijon viloyati Madaniyat va sport ishlari boshqarmasiga qarashli Bolalar va o'smirlar sport maktabida ring qirollari – Muhammadqodir Abdullayev, O'tkirbek Haydarov, Sergey Mixaylov, To'liqin Turg'unov, Temur To'lyakov, Bahodir Sultonov, Ziyatdin Toyg'onboyev, Quvonchbek Toyg'onboyev va

Qahramon Orziqulovlar tahsil olishgan.

Mazkur maktabda ilk saboqlarni olgan bolalardan iqtidorlilari Andijon Olimpiya xaxiralari bilim yurtiga uchirma qilindirdi.

Bugun ushbu sport maktabi Andijon Olimpiya xaxiralari sport kollejiga aylantirildi. Quvonchlisi, bugun Andijonning har maktab-u kollejida yuqorida tilga olingan chempionlarning munosib izdoshlari kamolga yetmoqda.


Bolalar, men hozir sizlarga chempionlarga tenglashib, sport olamida yulduz bo'lishga intilayotgan tengdosh do'stlaringiz haqida gapirib bermoqchiman.

Doston Turdiyev 1991-

yilda Qo'rg'ontepa tumanining Sultonobod

qishlog'ida tug'ilgan. Sportning boks turida 10 yoshidan boshlab murabbiy Ahror Ziyayev qo'l ostida shug'ullanishni boshlagan. Hozirda Andijon Olimpiya xaxiralari sport kollejida (AOZSK) Abduvohid Jalolov ustozligida boks mashg'ulotlarida chiqmoqda. O'tgan yili Doston o'z tengqurlari orasida 54 kg. vazn toifasida O'zbekiston chempionligiga erishdi. 2007-yilda 57 kg. vazn bilan yana chempion bo'ldi. Bokschi Dostonning sportdagi yutuqlari bilan bir qatorda uning o'qishlari ham maqtovga loyiq. U rus tili, ingliz tili, matematika fanlariga qiziqadi.

RAQOBATDA G'OLIB BO'LMOQCHI




RINGDAGI XATO

Jasurbek Latipov bu yil 16 yoshga to'ldi. U Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi Uyg'ur qishlog'ida tug'ilgan. Birinchi murabbiyi Abdulhafiz Egamov. Hozirgi kunda kollejda Erkinboy Boyboyevdan boks bo'yicha bilimlarini chuqurlashtiryapti. O'zbekiston birinchiligida 46 kg. vazn toifasida shohsupaning eng yuqorisidan joy olgan bo'lsa, Bokuda Haydar Aliyev xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro turnirda 2-o'rinni egalladi.

Boku shahrida o'tkazilgan musobaqa haqida Jasurbek shunday hikoya qiladi: – Birinchi jangda belorussiyalik bokschini muddatidan oldin mag'lubiyatga uchratdim. Ikkinchi bahsda rossiyalik raqibimni 10 ochko farqi bilan yengdim. Biroq, finalda yutqazib qo'ydim. Musobaqadan so'ng murabbiyim ringdagi xatolarimni aytdi. Endi bu xatolarimni hech qachon takrorlamoqchi emasman.

2012-yilni orziqib kutayotgan Jasurbekning orzusi yozgi Olimpiadaga borish va bu musobaqada g'olib bo'lgach, professional boksga qadam qo'yish.



Axtamqul KARIM

GRIPPDAN SAQLANING!

Gripp – bu keng tarqalgan kasallik bo'lib, nerv va yurak qon tomir sistemasi faoliyati buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Sog'lom yurgan odam birdan mazasi qochib, eti uvishadi. Lohas bo'ladi, isitmasi ko'tarila boshlaydi. Qisqa vaqt ichida u 39-40 darajaga yetishi ham mumkin. Bemor sovqotib, holsizlanadi.

Uni uy sharoitida davolash ham mumkin. Bemorni avvalo alohida xonada yotqizish kerak, u ko'p yurmay, yotishi zarur, ko'proq suyuqlik, jumladan, malina choy hamda limon choy tez-tez ichish kerak. Qatiqdan qoqirim tayyorlab, ichiga ozgina murch solib ichish, terlash katta foyda beradi. Xonaga albatta mikroblarni o'ldirish uchun isiriq tutatish ham zarur. Kechqurun albatta isitma tushgandan so'ng tog'oraga qaynoq suv quyib, 4 dona gorchitsa soling, unga oyog'ingizni solib o'tiring. Antibiotik dorilardan «Rinza» hamda «Insti» damlamasidan kuniga 2-3 mahal ichib turing.

O'zingizni asrang, terlab turib, muzdek suv ichmasdan, issiq kiyimlaringizni kiyib yursangiz, hech qachon kasal bo'lmaysiz. Zero, kasal bo'lgandan ko'ra, uni oldini olgan afzal emasmi?!

M.UBAYDULLAYEVA tayyorladi

SAHNADA O'QUVCHILAR

Maktabimizda «Buratino» studiyasi ish boshladi. Darsdan bo'sh vaqtimizda teatrlashtirilgan ertak va sahna ko'rinishlarini tayyorlayapmiz.

Bu kabi sahna ko'rinishlari Sergeli tumanidagi 7-o'rtta maktabda ham bo'lib o'tmoqda. Bu yerda ular «Bo'g'irsoq» nomli ertakni sahnalashtirishdi. O'quvchilar ishtirokidagi sahna ko'rinishlari barchaga ma'qul bo'lmoqda.

Bunda bizga murabbiylarimiz yaqindan yordam bermoqdalar.
Hilola RAVSHANBEKOVA,
Toshkentdagi 13-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi



12 yoshlarda edim. Uy ishlarini bajarib, darslarimni tayyorlab bo'lib, yon qo'shnimiz, jurnalist opamiz Qutbi Nosirovaning uylariga tez-tez chiqardim. Uylarida badiiy adabiyotlar juda ko'p bo'lardi. Bir kuni bolalar yozuvchisi Quddus Muhammadiyning she'riy kitobini o'qib chiqdim. Shunda Qutbi opa: «Agar xohlasang, Quddus Muhammadiy rahbarligidagi adabiyot to'garagiga olib boraman», dedilar. Men rozi bo'ldim. Bugungi kunda o'sha vaqtdagi to'garak a'zolarining ko'pchiligi katta yozuvchi, shoir va jurnalist bo'lib yetishishdi.

KITOBGA MEHR BERING

Aziz farzandlarim! Kitob sizning eng yaqin do'stingiz, maslahatgo'yingizdir. Shuning uchun ham kitobga mehr bering. Maktabingizda kitob bayramlari tadbirlarini tez-tez o'tkazing. Bu bilan kitobxonlikka atrofda qilarni ham jalb eting.


Nazira JO'RAYEVA,
«Do'stlik» ordeni sohibasi

«ASALCHI AMAKI» SARGUZASHTI

Alisher Odilov Chilonzor tumanidagi 179-maktabda tahsil oladi. Respublika o'quvchilar saroyidagi haykaltaroshlik to'garagi a'zosi, akademik Akbar Rahimov rahbarligida kulolchilik maktabi o'quvchisi. Yaqinda Alisherning ishlagan asarlari Fransiyada bo'lib o'tgan ko'rgazmada yuqori baholandi.

— Asalarim orasida «Asalchi amaki» menga juda yoqadi. «Amaki» dan ruhlanib, ko'p asarlar yaratdim. «Asalchi amaki» ning sarguzashtlarini davom ettirayotganimdan xursandman. Kelajakda ustozlarim ishonchini oqlab, mohir kulol haykaltarosh bo'lish, — deydi Alisher.

Yosh haykaltaroshning ijodiy ishlariga omad tilaymiz.



Xalqimiz azal-azaldan savob ishlar qilishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun ham bu borada qancha gapirsak oz.

Yaqinda mahallamizda «Savobli ish qilish» mavzusida tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirda buvijon va buvajonlar faol ishtirok etishdi. Savobli ishlar haqida rivoyat va hadislardan aytib berishdi. Biz yoshlar esa ularning so'zlarini diqqat bilan tingladik. Tadbir bizlarda katta taassurot qoldirdi va bundan buyon ko'proq savob ishlar qilishga harakat qiladigan bo'ldik.

Sevara MAJIDOVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahri, 3- umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

MAHALLAMIZDA
TADBIR



Ilm (arab) — o'qish, o'rganish hamda hayotiy tajriba asosida orttirilgan bilim va malakalar majmui, yana bir ma'nosi fan sanaladi. Uning ko'pligi ulum-bilim. Islom dinining asoschisi Payg'ambar Muhammad (s.a.v) turli munosabatlar yuzasidan doimo sahobai ikromlariga Yaratgan zotning ilmi va insoniy ilm haqida uqtirib kelganlar. Musulmonlarning Muqaddas kitobi bo'lmish (Qur'oni Karimda) 750 ga yaqin joyda ilm so'zi bilan bog'liq fe'l o'zaklari uchraydi. Ilm o'rganish inson hayotini tubdan o'zgartiradigan faoliyatdir. U butun bir jamiyat uchun kerakli usuldir.

Avval o'qib, o'rganib, so'ng fikr bildirish joiz. Olim kishi barcha yutuqlardan ustundir. Inson ilm yo'lida riyozat chekib, ilm o'rganishga harakat qiladi va

Yoshlar bizning tayanchimiz, ertangi kundan umidimiz, savob ishlarimizning davomchilaridir.

I.A.KARIMOV

SANJAR CHIZGAN RASMLAR

Sanjar tasviriy san'atga juda qiziqadi. Shu sababdan ham u «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivalida tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha ishtirok etdi va g'oliblar safidan joy egalladi.

Toshkent Foto uyida yurtimiz yosh ijodkorlarining 150 dan ortiq ijodiy asarlaridan iborat ko'rgazma ochildi. Unda Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 1- maktabning 6-sinf o'quvchisi Sanjar Egamberdiyevning chizgan rasmlari nafaqat tengqurlari, balki taniqli rassomlarning ham e'tiboriga tushayotgani quvonarli.

Assalomu alaykum, aziz tengdoshlar!

Bizning litseyimizda ona tili va adabiyot fanlariga alohida e'tibor berilgan. Biz yozgan ijodiy ishlarimizni o'zaro muhokama qilib boramiz. Jumladan, turli suratlarga qarab maqola va matnlar yaratamiz. Ushbu surat sizning o'quv qo'llanmangizda bor. Marhamat, men yaratgan matnga baho bering:

Bir kuni Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro arkda o'ltirib, davlat ishlari ila band edi. Yasovullardan biri kelib, vaziri a'zam Alisher Navoiy podshoh bilan uchrashmoqchi ekanligini aytdi.

BIR SURAT TARIXI



Hazrat Navoiy kirmoq uchun ijizat olgach, ichkariga qadam bosdi. Va podshohi olamning istiqboli tomon yurdi.

Shoh Husayn Boyqaro birga o'qigan qadrdon do'sti Alisher Navoiyni barcha vazirlari orasida eng donishmandi deb bilar va uni juda hurmat qilardi. Shu o'rinda Mir Alisher Navoiy haqida bir og'iz so'z aytasak:

Alisher Navoiy muttasil ijod etish bilan birga, yoshlikdagi do'sti Sulton Husayn Boyqaro saroyida

davlat ishlarini ham vijdonan olib bordi.

Muhrdor, so'ngra bosh vazir, hokim bo'lganda esa mamlakatni obodonlashtirish, xalq hayotini farovon etish, oddiy mehnatkashlardan olinadigan soliqlarni kamaytirish, madrasa talabalari uchun nafaqalar ajratishga ahamiyat berdi. Yangi ariqlar qazdirdi, shifoxona va kutubxonalar bunyod ettirdi.

Ayni chog'da, Navoiy Sulton qoshiga yangi bir xayrli taklif ila kelgan edi. Boyqaro do'stining taklifidan xursand bo'ldi va uning aql-u zakovatiga tasannolar aytdi.

Navoiy shohga qulluq qilib xonani tark etarkan, xayoli boshlanajak ishlarda edi.



Dildora MUHIDDIN qizi,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at litseyi
o'quvchisi

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, V bob 18- modda

ILM- JAMIYATNING BEZAGI

orttirgan ilmiga amal qiladi. Bir bob ilm o'rganish ming rakat nafl namozidan yuqori turadi. Ilm biz ummatlarning bu dunyodagi va oxiratdagi chirog'imizdir. Ibn Abbos (r.a) rivoyat qiladilar:

«Olimlar martabasi oddiy mo'min martabasidan yetti yuz barobar ortiqroqdir». Shuning uchun Payg'ambar (s.a.v): «Mening ummatlarim olimlarining martabasi bani Isroil Payg'ambarlari martabasiga tengdir», deb aytgan ekanlar. (Durratul va'izin).

Yana bir rivoyatda Nabiy (s.a.v) dedilar: «Har kim olim oldida ikki soat o'tirsa yoki ikkita masala eshitsu yoki birga ikki luqma taom yesa yoki ikki qadam birga yursa, Yaratgan unga jannatda ikkita bo'ston ato qilur. Har bir bo'stonning kattaligi bu dunyodan ikki barobar keladi». (Durratul va'izin).


Imi hol degan tushuncha mavjud. Imi hol barcha insonlarni o'rganadigan bilim-ko'nikmalari, ya'ni jamiyat tomonidan o'rganiluvchi ilm erur. Bejjizga bobolarimiz: «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyishmagan. Ota-ona farzandiga tug'ilganidan ilm o'rgatsa, ertangi kuni oliy bo'ladi.

Demak, ilm o'rganmoqlik oliy yutuqdir. Ilm insonning ko'magi va jamiyatning bezagi sanaladi. Uning salmog'i beqiyos, ko'zga ko'rinarli va tasavvur qilish mumkin bo'lgan asosdir. Asos esa ilmning samarasidir.

Ruslan IBODOV,
Sharqshunoslik instituti,
2-bosqich talabasi

Astrid LINGREN

Istiqloq ilhomlari



Va Bolakay haqida qissa

Karlson odatdagidek sho'xlik qilib kerilayotgan edi.

Mashina ular turgan tom tarafga burildi. Tag'in cho'zib-cho'zib chinqirdi.

– Bu menga kelgan shekilli, – dedi xavotirlanib Bolakay.

– Senda nima ishi bor ularning? – dedi

Karlson, – sen o't yoqibsani?

– Yo'q, tushunmading. «Men tomda bo'laman», deb oyimga xat yozib ketgan edim. Oyimni bilasan-ku, biram vahimachiki...

Bolakay gapini tugatar-tugatmas tom chetida uzun narvon ko'rindi. Temir qalpoq kiygan bir amaki asta-sekin tomga chiqib kelardi. Uni ko'rib, Karlson shipillab uyiga qarab ketdi. Bolakay esa beixtiyor o't o'chiruvchi amakiga qarab yurdi.

– Qimirlama! – deb do'q qildi amaki. – Hozir men chiqib boraman.

U tomga chiqib, Bolakayning qo'lidani ushladi. U yoq-bu yoqqa alangladi:

– Sheriging ham borga o'xshagan edi, u qayga ketdi?

– Sherigim... yo'q, – dedi Bolakay, – o'zim shundoq aylanib yuruvdim.

Amaki Bolakayni qo'ltiqlab, yana asta-sekin narvondan tusha boshladi:

– Uyingdagilarni qo'rqitib yuboribsan, ikkinchi bunaqa qilma, xo'pmi...

– Xo'p, – dedi Bolakay.

O'sha kuni Bolakayga uydagilar

indashmadi. Ertasiga o'rta oldilar.

– Tomda nima bor, pishirib qo'yibdimi? – dedi onasi, – aytmoqchi, u yerga qanday qilib chiqding?

– Karlson orqasiga mindirib, uchirib olib chiqdi.

Onasi jig'i-biyrn bo'ldi:

– Tavba! Yana Karlson, deydi-ya! Bu Karlson bir kuni meni jinni qilib qo'yadi.

– Hech qanaqa Karlson-parlson yo'q, – dedi dadasi, – o'zi ahmoqlik qilib boloxonadan o'tib chiqqan-da.

– Kecha bor edi Karlson, bugun yo'q bo'lib qolibdi-da, – dedi Bolakay, – shoshmay turinglar, bir kuni albatta uni ko'rsataman.

– Mayli, – dedi opasi Betan, – bundan keyin tomga chiqa ko'rma, xo'pmi. Biz seni o'ylab, biram qo'rqib ketdikki... Uf!..

– Yiqilib ketsang, nima bo'lardi, – dedi onasi, – axir sen biz uchun jondan aziz, suyuqli bolasan...

Onasi uni bag'riga bosdi, erkaladi.

– Yaqinda o'qishlaring tugaydi, dam olishga chiqasan. Seni ikki oy qishloqqa, buvingnikiga yuboraman. Mazza qilib toza havolarda o'ynaysan. Menimcha, u yoqda Karlson degan uchar odam bo'lmasa kerak...

Bolakay bir tomondan qishloqni o'ylab quvondi. Rostdan ham u buvisinikida yayrab dam oladi. Lekin qaytib kelganida Karlsonni topolmasa-chi, nima qiladi? Bolakay Karlsonga shunchalik o'rganib qolgan ediki, endi bu sho'x, ozgina maqtanchoq uchar odamsiz yashashni tasavvur qilolmas edi.

U o'z xonasiga kirdi. Deraza oldiga o'tirib, iyagiga suyandi. «Hademay ta'tilga chiqib, qishloqqa ketaman. Ungacha Karlson tez-tez kelib tursa, yaxshi bo'lardi-da. Birga o'ynab kelardik. Kelaqolsang-chi, Karlson!»

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Erkin MALIK

Bu o'ziga ham nash'a qilib: «Bedananing uyi yo'q, qayga borsa pit-pildiq», deb qo'yardi. Bu uning zorlanganimi yo taqdiriga tan berganimi, bilib bo'lmasdi. Aravakashlar shaharga tushganda nuqul zo'ridan deb unga nos obkelib berishadi. Eng arzon narsa nos bo'lsa kerak-da. Karimboy chol xursand bo'lish o'rniga qoshdan qovoq qaytarib to'ng'illaydi:

– Topib olganlaring nuqul nosvoy, nosvoy, nima, men nosvoy-osh ichamanmi? Bundoq kallaqant, novvot degan narsalar yo'g'akanmi shahar degan joyda?

– Ha, yoqmay ketsin, – qiyqirishadi aravakashlar, – kallaqantni yevolib, novvot choyni ichvolib, yosh xotinni oldiga jo'nab qoling-da, bu yoqda otlar ochidan tirishsin-a, unaqasi ketmaydi, sizga nosvoydan yaxshisi yo'q...

Karimboy chol yosh xotinidan gap ochilgandan keyin jim bo'lib qoladi. Bukrisi chiqib, battar bukchayib oladi.

Karimboy chol otlar bilan qaysi bedapoyaga ko'chsa, biz ham orqasidan soyadek ergashamiz. Mol boqadigan yaylovlar paxta dalalariga aylanib bo'lgan. Bizga bedapoyalarning cheti-yu ariq bo'ylari qolgan. Ko'cha chetidagi tutlarning tagida ham mol boqib bo'lmaydi. Zaharli dori sepib, kuydirib tashlashgan. Shunday qilmasa, g'o'zalarni o'rgimchak kana bosadi. Ishqilib, mol boqishdan

azobi yo'q. Sigiri borlar bir qoshiq sutga qarab qolgan. Yo'qlar kosa ko'tarib qo'shnidan so'rab yurishadi. Jilla qursa, oqchoy qilib ichsak, deyishadi. Shungami, kolxozning yam-yashil bedapoyalari sigirlarimizni ham, o'zimizni ham tushlarimizga kirib chiqadi. Karimboy chol itfe'l odam, biz bilan sal-pal chiqishgani bilan mol, qo'ylarni bedapoyaga yaqinlashtirmaydi.

Karimboy cholning yoshgina xotini, uch-to'rt yoshlardagi o'g'li bor. Eri urushdan qaytmagan kelinchakka qishloq kattalari uylab qo'yishgan. Bir kunam uyida yotmaydi. Xotini bolasini yetaklab ikki, uch kunda bir yasantusan bilan kelib ketadi. Karimboy cholning kirchir kiyimlari o'zgarib, hayit bayramiga chiqqandek bo'b qoladi. Ammo xotinig sirayam ro'yxushlik bermaydi. Ko'rdi deguncha to'ng'illagani-to'ng'illagan. Nuqul yer suzib, ko'zlariga qon to'lib, o'ldiraman seni, deydi. Xotiniyam gunoh ishi bordek tezroq oldidan ketish payidan bo'lib qoladi. Xotini Karimboy cholga teng emas, bilmagan odam uni qizimikin, deydi. Karimboy cholning yeyish-ichishi aravakashlarning bo'yniga. Qachon qarasa, qotgan nonni dog' suvga bo'ktirib, muk tushib kavshanib o'tiradi.

Biz bolalar Karimboy cholga bedapoyani debgina bog'lanib qolmaganmiz. Bu dunyoda ko'k bedasiz ham yashasa bo'ladi. Ammo anovi uchar otlarsiz yashab bo'lmaydi... Otlar, otlar... Har kuni peshin bo'lishini toqatimiz toq bo'lib kutamiz. Sigirlarni soyaga qaytaramiz-u, qorin ochliginiyam esdan chiqarib, otlar yoniga chopamiz.

RAQIBLAR

Soli dedi Karimga:

– Aytib beray muallimga. Kundalikni o'chirding, Sen Dilfuzdan ko'chirding.

– Unda men ham aytaman, – dedi Karim Soliga. – D + S deya yozgansan, Ahmad bobo toliga.

AQL VA SOQOL

Echki to'kdi bo'yoqni, Rosa yedi tayoqni. Sigir boshin qashladi, Nasihatni boshladi:

– Hoy, echkiy, menga boq, Hayot emasdir o'yin. Soqol bo'lgani bilan, Aql bo'lmasa qiyin.



YALPIZGINAM, O'PAY KO'ZINGDAN

Maysalar o'padi oyoqlarimni, O'rik gullaganda kelinchak bog'lar. Qadasam, ko'karar tayoqlarimni, Bobomday yastanib turibdi tog'lar.

Onamday mehribon ona tabiat, Shildirab suv oqqan irmoqlaringdan, Chuchmomalar taqşam qora sochimga, Daraxtlar qo'l cho'zgan barmoqlaringdan.

Quyoshjon, o'rgilay sening o'zingdan, Sumalak boshida oy ham o'yinchi, Yalpizginam, o'pay ko'zingdan, Bahor kelganidan suyunchi.

Qissa



SEN – 18 YOSHIDASAN...



O'shanda... men oltinchi, u beshinchi sinfda o'qirdi. Har soat tanaffusga qo'ng'iroq chalinishi bilan u o'qiyotgan sinfga yugurardim. Uni bir ko'rardim-u, ko'nglim joyiga tushib, ortga qaytardim. Yanagi tanaffusda yana yugurardim. Darsdan so'ng, uni uyiga kuzatardim. Xayolan u bilan bir necha soatga xayrlashardim. Kun botgach, ko'chasidan takror-takror o'tardim. Ko'rinib qolarmikin, degan umidda chirog'i yoniq derazaga ming iltijo bilan qarardim.

Bir kuni uning bir qo'shiqchi bola bilan uchrashib turganini ko'rib qoldim. U bola ham oltinchi sinfda o'qirdi. «Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda qadar ketmoqdaman», deya qo'shiq aytardi. Bu qo'shiq ularni birlashtirdi. Bu qo'shiq u bilan meni ajratdi. Ular tez-tez uchrashadigan bo'lib qolishdi. Shu bilan aytilmagan muhabbatim yuragimda bir umr armon bo'lib qolib ketdi. Oradan yillar o'tdi. Men hech narsani unutmadim. O'sha muhabbat jarohati yillar o'tsa hamki yuragimni og'ritishdan, azoblashdan to'xtamadi. Men u kabi go'zal qizni boshqa hech uchratmadim. Boshqa hech kimni sevolmadim. Nega u bilan gaplashmaganimga, uchrashmaganimga, ko'nglimdagini aytmaganimga hali-hanuz afsuslanaman.

Aziz do'stim! Siz bugun balog'at bekatidasiz. Muhabbat degan ulug' tuyg'u bugun sizning yuragingizga mehmon bo'lish uchun shaylanib turibdi. U istasangiz ham, istamasangiz ham qalbingizdan joy olishi tayin. Agar u qalbingizga mehmon bo'lsa, dunyodagi eng yaxshi mezbob sifatida uni qarshi oling. Unga peshvoz chiqing. Uni eng yaxshi so'zlaringiz bilan siylang. Chunki bunday mehmon yuragingizga bir marta keladi. U ketib qolgach, armonda qolmang. Uni shunday mehmon qilingki, u siz bilan bir umr birga qolsin, hayotingizni nurga to'ldirsin, baxt va saodat bilan bezasin!

Olam-olam quvonch olib kelsin! Sizning hayotingiz fayz-u farog'atda bo'lishini tilayman.

Quyida sizlarga atalgan she'rimni havola etmoqdaman:

Sen o'n sakkiz yoshdasan,
Gulsan – atir sochmagan.
Buncha xushsan, buncha shirin,
Nursan – ko'zim yoshlagan.

Eslolmayman o'zimni,
So'zlolmayman so'zimni.
Bu – ko'rk, bu – xusndan
Uzolmayman ko'zimni.

Mingta guldan go'zalsan,
Mingta oydan afzalsan.
Sen – bittasan chiroyda,
Mingta hurdan yaralgan.

Bo'l ko'nglim titrog'ida,
Bo'l ko'zim qarog'ida,
Seni tangrim asrasin
Doimo panohida!

Muhammad ISMOIL

AFSONALARDEK GO'ZAL

FASL

18 yoshim. Afsonalardek go'zal fasli umrning. Yurakda go'zal tug'yonlar jo'sh uradigan, bahor, ona zamin bag'ridan emas, sening bag'ringdan boshlanayotganini his qildiradigan yosh bu o'n sakkiz.

Men 18 yoshimda «O'n sakkizda o'n sakkizta she'r» degan turkum yozmoqchi edim. Boshladim, biroq tugatmadim. Chunki o'n sakkiz yoshimdan ketgim kelmadi. Bu turkumni yozib tugatib qo'ysam, o'n sakkizdan oshib ketib qoladigandek hali-hanuz (o'n sakkizdan oshib ketsam-da) o'sha turkumni tugatmay yuribman. Kim biladi deysiz, balki 70-80 yoshimda tugatarman...

O'qimoq, ilm olmoq, sevmok, yashamoq ishtiyoqi, hayotni sevishga undovchi, jism-u joningni harakatga keltiruvchi, orzularingni yuragingga sig'dirmay toshiradigan fasl bu.

Tuyg'ularing aqlingga bo'ysunmay, dalli xayollar qalbingni to'ldiruvchi lahzalar, hech qachon qaytib kelmaydigan onlarni bag'riga olgan fasl bu.

Mana o'sha o'n sakkiz yoshimda yozilgan turkumdagi she'rlardan biri:

O'n sakkiz yosh eng go'zal dunyo,
Pari bo'ldim uning bag'rida.
Qo'llarida qilich, gul tutgan,
Shahzodam bor uning bag'rida.

Bilamanki uning ishqidan,
Yuraginga bahor o'tadi.
Bir kun kelib ko'tarib meni,
Osmoniga olib ketadi.

O'n sakkizdan keyin armonliroq she'rlar yozildi, g'amginroq yozildi she'rlar. O'shandagi nafis va harir hislar o'rnini qayg'ular, javobsiz sevgi iztiroblari, ko'hna hayotning eski lash-lushlari, ishlaridan zada bo'lgan dil og'riqlari egalladi.

Biroq, o'sha umrni his etib yashab o'tmoq go'zal va muhim. Sevgi fasllarini, orzu lahzalarini dildan o'tkazib, yulduzlarga oshno, sirdosh bo'lib, tunlar bilan suhbat qurib o'tkazmoq muhim. Bu faslni men shunday o'tkazdim. Men unda qololmadim, u menda, mening yuragimda, she'rlarimda qoldi. Sehlari, sirlari bilan qalbidam qoldi.

O'shanda o'sha shahzoda bor edi. Bugun u qayerda? Bilsam, koshkiydi. O'n sakkiz yosh bu hamma orzularingga afsonalardagidek xayol tezligida erishtiradigan fasl.

O'ttiz yoshingda emas, o'n sakkiz yoshingda bahorni kuzatasan. Qirq yoshingda emas, o'n sakkiz yoshingda dunyoni ko'proq sevasan. 50 yoshingda emas, o'n sakkiz yoshingda odamlarga ko'proq mehr qo'yasan odam. Shunday samimiyat va yurak fasli bu.

Bu fasldan ketging kelmaydi. Bahorga va hayotga oshiqlik davring boshlanadi. Qalblarga, yuraklarga kirasan keyin, lekin o'n sakkizga qaytib kira olmasan.

Mana, yana o'sha o'n sakkizning tuyg'ulari...

O'n yetti bor bo'ldim beqadr,
Barchasini saodat bildim.
O'n yetti bor haqoratlangan,
Yuragimda ibodat qildim.

O'n yetti yil kun ko'rmay yurak,
Muhabbatni tilanib yotdi.
Bir mo'jiza yuz berdi nogoh,
O'n sakkizning tonglari otdi.

Endi yashay boshlayman guldek,
Boshlanadi endi bahorim.
Hijronlarga vaslingiz arzon,
Nahot biga visol yo'q, yorim?

Endi sizni chorlayman. Keling,
Garchi sizdan qadr ko'rmayman.
Qalbingizga kiraman ming bor,
O'n sakkizga qaytib kirmayman!
Keling!!!

Guljamol ASQAROVA

Oz-o'rganib, dono bo'lm, qanoq, dono bo'lm, qanoq...

So'radilar:
– Donolar qanday insondurlar?
– Ular olamning qalbi hisoblanadilar, zero olam qalbsiz bo'lmaydi.

Amir Temurning o'g'illari padari buzruklarining an'analarga juda sodiq bo'lganlar. Ma'lumki, Sohibqiron Temur hazratlari Kamol Xo'jandiyni shoir sifatida juda e'zozlagan. Bu an'anani davom ettirgan Mironshoh Mirzo har oyda shoir uchun 10 ming dinor maosh ajratib turgan.

– Dehqon taqvimi bo'yicha hozir qaysi oy?
– Aqrab oyi. Bu oy 29 kun bo'lib, 18-noyabrgacha davom etadi. Aqrab o'zbekchada Chayon demakdir.

Bu oyda harorat pasayib, asta-sekin qishning sovuqlariga ulanib ketadi. Shuning uchun ham «Aqrab keldi, iliq kunlar kam qoldi», deyiladi.

Qushlar va boshqa hayvonlar xatti-harakatlariga qarab, aqrab ob-havosini oldindan aytish mumkin:

Ertalab chumchuqlar chirqillasa, tushga yaqin havo isiydi;

Qora qarg'alar shudgorlangan maydonlarga qo'nsa, tez orada havo buziladi;

Daraxt barglari to'kilaversa, qish qattiq keladi;

Aqrabning issiq-iliq kunlarida piyoda sayr qilish nihoyatda foydalidir.

«Bitta gunoh tufayli olti oy kechasi ibodatga turolmadim», dedilar Sufyon Sabriy. U gunohning nimaligini so'rashganda, «Bir kishini yig'layotganini ko'rib, riyokorlik qilyapti, deb o'ylagan edim», deb javob qildilar.

Yaxshi fazilatlaringiz ko'p, shuning uchun yaxshi bolalarsiz. Afsuski, orangizda yalqovlar, dangasalar ham bor. Ularni ham qatoringizga qo'shsangiz, yana-da yaxshi bolalarga aylanasiz.

– Kimdan maslahat so'ramoq lozim?
– Uch fazilatga, ya'ni poklik, yaxshilarga muhabbat va chuqur bilimga ega bo'lgan kishidan.

XO'HLANG O'QING, O'QIMANG

– Yoshlardagi va qariyalardagi qaysi fazilatlar qadrlidir?

– Yoshlardagi sharm-hayo va shijoat, keksalardagi donolig-u vazminlik.

– Ayb sanaladigan biror fazilat bormi?
– Minnatli saxovat.

O'qituvchi so'radi:

– Qani ayting-chi, bolalar, sichqon qancha umr ko'radi?

– Bu mushukka bog'liq, – dedi Azizxon.

Fizika o'qituvchisi:

– Faraz qilamiz – elektr lampasini yondirmoqchi bo'ldik, lekin u yonmadi. Xo'sh, sababi nima bo'lishi mumkin?

O'quvchi:

– Elektr haqini to'lamagan bo'lsangiz kerakda...

O'qituvchi: – «Qand» so'zi ishtirok etgan gap tuzing.

O'quvchi: – Ertalab qahva ichdim.

O'qituvchi: – Bu gagingda «qand» so'zi qayerda?

O'quvchi: – Qahvaning ichida erib ketgan.

MAKTABIGA FAXR QIZ



Nilufarni bolaligidan taniyman, juda tirishqoq, intiluvchan qiz. Oyisi ilk bor qo'ldan yetaklab tahririyatimizga olib kelganida, 6 yoshli qizaloq edi.

Shundan buyon to'garagimizning faol a'zolaridan biriga aylangan. Hozir 13 yoshda. Bo'yolari ancha cho'zilib qolibdi. Lekin biroz tortinchoqligi-yu kamtarligi qolmabdi-da. Bilaman, bu fazilat unga oyjonisidan o'tgan. Qolaversa, oiladagi o'zbekona tarbiyaning samarasi. Shunday bo'lsa-da, nafaqat sinfining, balki o'zi tahsil olayotgan poytaxtimizdagi 247-maktabning ham eng faol o'quvchilaridan sanaladi. Sinf rahbari Mukarram Gaipova ham unga juda suyanib qolgan. Kelgusida diplomat bo'lishni orzulaydigan Nilufarga o'z nutqi ustida ko'proq ishlashi lozimligini ta'kidlaydi.

Matematika, fizika, rus tili, ona tili, tarix, qo'ying-chi, hamma fanlarga qiziqadi. Fan olimpiadalarida muntazam qatnashib, bilim maskani sharafini munosib himoya qiladi. Maktabdagi tadbir va tantanalarni-ku, gapirmasak ham bo'ladi, boshlovchilik qilib, qo'shiq va raqslari bilan yana-da fayz kiritadi. Maktab direktori Shuhrat aka Sultonov uni bejiz «Maktabimiz faxri» deya maqtamaydilar-da. Olgan «Faxriy yorliq»lari ham bir talay bo'lib qoldi. O'tgan yili biologiya fani bo'yicha o'tkazilgan musobaqada qatnashib, 42 ta maktab orasida birinchilikni egallab qaytishgandi. Bu yil esa biologiya fanidan olgan bilimlarini sinab ko'rishga ahd qildi. Sinfdoshlari bilan birgalikda tayyorlagan devoriy gazetalari, tuzgan krossvordlari uchun yana birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi. «Xalqaro oila yili»ga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdagi «Sog'lom oila», «Otam, onam va men» mavzusida asfaltga chizgan rasmlari ham barchaga manzur bo'ldi.

Fan olimpiadalarida, ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritganimizda, maqolalarimiz gazetada chop etilganida, o'quvchilarimizning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi, - deydi Nilufar hayajon bilan. - Maqolalarim «Tong yulduzi»da chop etilib turardi. Yaqinda bir she'r ham yozdim va ustozlarimga o'qib berdim.

BUVIJONIM O'GITI

Buvijonim ko'zlarida
Qandaydir mung ko'raman.
Issiq bag'riga singib,
Sababini so'rayman.

- Bu mung emas, shukronalik
alovati, jon qizim.

Juda ko'pga armon bo'lgan,
kunlarni ko'rди ko'zim.
Ona yurtim ozod bo'ldi,
Balqidi erk quyoshi.
Qadamjolar obod bo'ldi,
Islom bobo yo'lboshi.
Imkonlar keng, o'qib, uqib,
Olim bo'lib ketinglar.
G'animatdir bu damlarning,
Siz qadriga yetinglar!

Nilufar KOMILOVA,
poytaxtdagi
247-maktabning 7-«B» sinf
o'quvchisi

Aziz bolajonlar,
Nilufarning she'ri
sizga ham ma'qulmi?
Uning yutuqlaridan
buvijonisi, onasi
Viloyatxon opaning
qanchalar faxrlanib
yurishlarini ham
bilasizmi? Siz-chi,
qanday yutuqlaringiz,
muvaffaqiyatlaringiz
bilan yaqinlaringizni
quvontiryapsiz? Bu
haqda o'ylab ko'ring
va bizga albatta yozib
yuboring.

ZAMONBEKA

Aziz tengdoshlar! Siz o'zingiz yashayotgan, ota-bobolaringiz yurti, kindik qoningiz to'kilgan ona tuproq - O'zbekistonni, uning tarixini, buyuk ajdodlarimizni, bir-biridan go'zal qadimiy shaharlarini yaxshi bilasizmi? Ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasdan turib, haqiqiy vatanparvar, chinakam komil inson bo'lish mumkin emas.

Kuni kecha «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida nashr etilgan taniqli jurnalist va adib Jabbar Razzoq qalamiga mansub «Vatan qadri» kitobini mutolaa qilsangiz, yuqoridagi savollarga to'liq javob olasiz.

To'plamni sinchiklab o'qib chiqsangiz, Mustaqillik tufayli yil sayin gurkirab rivojlanayotgan Vatanimiz, uning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi singari betakror obidalar bilan butun olam ahlini rom etayotgan shaharlari, shu qadimiy zaminda tug'ilib, dunyoga mashhur bo'lgan Jaloliddin Rumi, Nasriddin Rabg'uziy, Pahlavon Mahmud singari buyuk siymolar hayoti va ijodi bilan tanishasiz.

To'plamda yurtboshimizning xorijga ilk safari - Hindistonga tashrifi, Janubiy Koreya, Malayziya va Indoneziyada bo'lishi hamda uning samaralari haqida hikoya qiluvchi safar taassurotlariga keng o'rin berilgan.

VATAN QADRI

Istiqlol tufayli batamom yangi qiyofaga kirgan, mazmunan xalqimizning buyuk manfaatlarini o'zida mujassam etgan Mustaqillik maydoni, undagi Ezgulik arkasi, Baxtiyor ona haykali, Xotira maydonidagi yodgorliklar haqida hikoya qiluvchi «Eng aziz maydon» maqolasi sizning qalbingizda shu muqaddas tuproqqa cheksiz g'urur uyg'otadi.

Dunyoga betakror olimlar yetishtirib bergan, tarixda «Dorul hikma va maorif» deb nom olgan

Xorazm Ma'mun akademiyasi tarixi va buguni haqida hikoya qiluvchi maqola ham sizni qiziqtiradi.

Xullas, «Vatan qadri» to'plamidan joy olgan esselar, publitsistik maqolalar va qatralar Sizing dunyoqarashingizni boyitibgina qolmay, balki o'quv jarayonida insho va referatlar yozishingizda qo'shimcha manbaa sifatida

qo'l keladi.

Men ushbu kitobni sotib oldim, u o'quv jarayonida juda qo'l kelmoqda. Sizga ham zarur bo'lsa, 144-37-81 telefoniga qo'ng'iroq qilsangiz, nashriyot ish yurituvchilari o'z yordamini ayashmaydi.

Nur ISLOM,
Yunusobod tumanidagi 97-maktab o'quvchisi

RASMLAR KO'RGAZMASI



Nasrullo ERGASH,
Surxondaryo viloyati,
Sariosiyo tumani

O'qi, qiziq!

Non daraxti

Qimmatli bolajonlar, non daraxti haqida bilasizmi? Non daraxti deb ataluvchi o'simlikning bo'yi 18-20 metr, barglari esa yirik-yirik shaklda bo'ladi. Mevasining og'irligi 15-20 kilogramm keladi. Bir tup non daraxti bir necha yuz kilogramm «non» hosil berishi mumkin. Mevasining po'sti g'udda-g'udda, mag'zi sarg'ish - limonrang, pishgach, mag'zi xamirdek yumshab qoladi. Mevasining uchi o'tkir yog'och bilan bir necha joydan teshib, tun bo'yi tashqariga qo'yiladi. Ertalabgacha xamirga o'xshab oshib qoladi. Xamirga suv va norjil yog'i qo'shib, yog'och tog'orada qoriladi. Zuvalalari banan bargiga o'rab, tandirda yopiladi. Undan tayyorlangan nonning ta'mi bug'doy ta'miga o'xshab ketadi. Non daraxti Hindiston iqlimiga moslashgan bo'lib, ko'proq o'lkaning janubida o'stiriladi.

Bundan million yil avval yashagan ulkan hayvon - dinozavr izlari Braziliyaning Paraiba shtatida topildi. Bu hayvonning izlari qotib ketgan botqoqlikni qazish natijasida aniqlandi. Olimlarning fikricha, iz



Idish-tovoqlar muzeyi

Polshada idish-tovoqlar muzeyi bor. Yevropada yagona hisoblangan bu muzey ko'rgazmalaridagi buyumlarning asosiy qismini 200 yildan beri ishlab kelayotgan «Silaziya» idish-tovoqlar korxonasi mahsulotlari tashkil etadi. Shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtda ushbu korxonada chiqarilayotgan kastyulka, tova va choynaklar dunyoning 40 dan ziyod mamlakatiga eksport qilinadi.



Afrika, Amerika bir qit'a bo'lgan...

qoldirgan dinozavrning uzunligi 10 metr bo'lib, panjalarining izlaridan va boshqa organlarining qoldiqlaridan uning og'irligini bema'lol aniqlash mumkin. Braziliyaning «Veja» jurnali dinozavrning Afrikadan Shimoliy Sharqqa tomon kelganligini yozadi. Ma'lum bo'lishicha, 100 million yil ilgari Afrika va Janubiy Amerika bir qit'a bo'lgan ekan.

D.HOTAMOVA



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbar RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 18363
Buyurtma N: J 4300

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va
sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Gulyuz
ORIFJONOVA